



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrda (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

FARG'ONA VODIYSI PAXTACHILIGI TARIXIDA NAMANGAN UYEZDI BOSHLIG'I BOSHQARMASI FONDI HUJJATLARI QIMMATLI MANBA

Mirzayev Avazbek Tolibjonovich

Andijon davlat universiteti

«Jahon tarixi» kafedrası dotsenti, t.f.f.d.

E-mail: avazbek.mirzaev.1956@mail.ru

Tel: +998 91 612 07 18

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Namangan uyezdi boshlig'i boshqarmasi fondida saqlanayotgan, mustamlakachilik davriga oid irrigatsiya va paxtachilik tarixi masalalari yoritilgan arxiv hujjatlari manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kolonial davrda paxtachilik sohasini tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar va qarorlarning mazmuni hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada arxiv hujjatlari paxtachilik tarixini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: arxiv, hujjat, uyezd, fond, irrigatsiya, kanal, pud, paxta.

ДОКУМЕНТЫ ИЗ ФОНДА КАНЦЕЛЯРИИ НАЧАЛЬНИКА НАМАНГАНСКОГО УЕЗДА – ЦЕННЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ХЛОПКОВОДСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация. В данной статье, с источниковедческой точки зрения анализируются архивные документы, хранящиеся в фонде управления начальника Наманганского уезда, охватывающие историю ирригации и хлопководства в колониальный период. Исследование освещает содержание законов, указов и постановлений, регулирующих хлопководство в колониальный период, а также их роль в отражении экономических и социальных процессов. Статья научно обосновывает тот факт, что архивные документы служат важным историческим источником при изучении истории хлопководства.

Ключевые слова: архив, документ, уезд, фонд, орошение, канал, pud, хлопок.

DOCUMENTS FROM THE NAMANGAN UYEZD CHIEF'S ADMINISTRATION FUND: A VALUABLE SOURCE FOR THE HISTORY OF COTTON GROWING IN THE FERGANA VALLEY

Abstract. This article analyzes—from the perspective of source studies—archival documents held in the records of the Namangan uyezd administration, which cover the history of irrigation and cotton cultivation during the colonial period. The study examines the content of laws, decrees, and regulations governing cotton cultivation at that time, as well as their role in reflecting economic and social processes.

The article substantiates the fact that these archival documents serve as a vital historical source for studying the history of cotton cultivation.

Keywords: *archive, document, uyezd, fonds, irrigation, canal, pood, cotton.*

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O'zbekiston tarixi fanida ham o'tmishda bo'lib o'tgan voqyea-hodisalar xolisona yoritila boshlandi. Sobiq sovetlar tuzumi davrida O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan ilmiy asarlarni yaratishga tarixchi olimlarning ijodkorligiga yo'l qo'yilmay faqat markscha-lenincha nazariya nuqtayi nazaridan qarab kelingan edi. Aslida esa O'zbekiston tarixi - bu jahon tarixiy jarayonining bir bo'lagidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: "Barchamizga ma'lumki, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi" – deb ta'kidlaydi[1.5].

METODOLOGIYA

Hozirgi kunda *mustaqil* O'zbekistonda tarix fani ayrim hodisalarni aniq tarixiy sharoit bilan bog'lab tadqiq qilishni, dalillarni butunligicha, bir-biriga bog'lab olishni, voqealarni atroflicha, ularning ijobiy va salbiy oqibatlarini inobatga olgan holda yoritishni talab qilmoqda. Mavzuni yoritish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar, dalillar va misollar arxivlardan, davriy matbuotdan, e'lon qilingan manbalardan olinadi[2.83]. Mazkur maqolada biz ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjalaridagi mavzuga doir ma'lumotlarni tahlil etishga harakat qilamiz.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgan va asta sekinlik bilan bu o'lkani o'z mustamlakasiga aylantirgan edi. Mustamlakachilik davrida tarixiy manbalarning xili va turi ko'paydi. Turkistonda faoliyat ko'rsata boshlagan kolonial ma'muriyatining barcha bo'g'inlarida xilma-xil ish yuritish hujjatlari yaratila

boshlandi. Qonun chiqarish aktlari bilan birga bu hujjatlar muhim tarixiy manbalar qatoriga kiradi.

Bu davrda Turkiston o'lkasining mustamlaka maqomi bir necha qonun chiqarish aktlarida o'z aksini topdi. Ular, asosan 1865, 1867 va 1886-yillarda e'lon qilingan o'lkani boshqarish haqidagi Nizomlardir. Rossiya imperatorlari tomonidan tasdiqlangan ushbu Nizomlarda Turkiston o'lkasini boshqarishning asosiy tamoyillari, mustamlakachi ma'murlarning vakolatlari, mahalliy xalqning siyosiy huquqsizligi, yurtimizning metropoliya xomashyo bazasiga aylantirilganligi o'z aksini topgan[3.116-117].

Hujjatli manbalar tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixchilar arxiv hujjatlarisiz qimmatli dalillar bilan asoslangan tarixiy asarlar yarata olmaydilar[4.68]. Tadqiqotchi arxiv hujjatlariga murojaat qilganida, ko'pincha ma'lum darajada kelgusi ishining dastlabki asosiy kontseptsiyasiga ega bo'ladi[5.90].

Tadqiqot mavzusi bo'yicha hujjatli materiallar belgilanganidan so'ng ularning atributatsiyasi, ya'ni bu hujjatlarning shakli va haqiqiyliigi, ularning yozilgan sanasi, ularning mualliflari va adresatlarini aniqlash lozim bo'ladi[6.66].

Turkiston o'lkasida tashkil etilgan Farg'ona viloyati tarkibida, general-gubernatorning 1876-yil 6-mart kungi buyrug'i bilan Namangan uyezdi boshlig'i boshqarmasi ta'sis etildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan 329-fondning tarkibidagi 118 ta yig'ma jildlarning materiallari mazkur boshqarmaning 1876-1917-yillardagi faoliyatiga oid bo'lib, ushbu maqolada uyezd bo'yicha paxtachilik sohasini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan chora - tadbirlarga doir hujjatli ma'lumotlar manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Fondagi ayrim hujjatlarda, paxtachilik sohasida muhim o'rin tutgan irrigatsiya tizimida uyezd boshliqlari, irrigatsiya bo'yicha boshqarma boshliqlari, ariq - oqsoqollar va miroblarning vakolatlari, yuqori tashkilotlarga sun'iy sug'oriladigan paxta dalalari, paxta ekini bo'yicha ma'lumotlarni yetkazib berilishi aks etgan[7.51-52].

Fond hujjatlarida Turkiston o'lkasida 1882-1894-yillarda paxtachilikning rivojlanib borishi masalasida ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, xususan, podsho xukumati mahalliy ma'muriyatining paxtachilik bo'yicha mutaxassislaridan biri M.Brodovskiy tomonidan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasida e'lon qilingan "Будущее хлопкового дела в Туркестанском крае" va "Возделывание хлопчатника" deb nomlangan maqolalarida, Turkiston o'lkasida, jumladan Farg'ona viloyatida amerika paxta navini ekish, ya'ni iqlimlashtirish hamda hosilining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mukammal va batafsil ma'lumotlar berilgan[8.1-7].

Mustamlakachilik davrida imperiya xukumati Farg'ona vodiysida paxtachilikni rivojlantirishni sug'orish inshootlari qurib, yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga emas, balki mavjud dehqonchilik qilinayotgan yerlardagi boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini kamaytirish evaziga amalga oshirishga intilgan edi[9.119].

Farg'ona vodiysining paxta yetishtirishga ixtisoslashuvi, o'z navbatida, imperiya xukumatidan yangi sug'orish tarmoqlarini barpo etishni, mavjudlarini esa ta'mirlashni talab etar edi. Mustamlaka davri irrigatsiyasining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda Farg'ona vodiysida katta sug'orish tarmoqlari qurilmagan, ma'muriyat asosiy diqqat-e'tiborini sobiq sug'orish tarmoqlarini takomillashtirish va tiklashga qaratdi.

1887-yili Namangan uyezdidagi mavjud Yangiariq kanalidan Aysi-Shaxand yo'nalishi bo'yicha ariq qazildi. Bu ariq qurilishi bilan To'raqo'rg'on, Mirishkor, Aysi, Shaxand qishloqlarining suv ta'minoti yaxshilandi. Ariqning umumiy uzunligi 17 km bo'lib, u qo'shimcha 5000 desyatina yangi yerlarni sug'orish imkonini bergan[10.38].

1888-yilda Turkiston o'lkasidagi irrigatsiya tizimi bo'yicha boshqarma boshliqlari va mudirlar, miroblar, ariq oqsoqollar va uyezdlar boshliqlari uchun, asosiy sohasini paxtachilik tashkil etgan sug'orma dehqonchilikda sug'orish tarmoqlaridan foydalanish tartibi va suvni taqsimlanish masalalari bo'yicha instruksiya ishlab chiqildi va joylarga tarqatildi[11.1-32].

Shunday qilib, mustamlaka ma'muriyati 40 yil (1877-1917) mobaynda Farg'ona vodiysida, jumladan, Namangan vohasida irrigatsiyani rivojlantirish sohasida hech bir yangilik yarata olmadi va yangi sug'orish inshootlari barpo etmagan edi[12.51].

Namangan uyezdi 5 ta uchastkaga bo'lingan bo'lib, uning tarkibida 1900-yilda 26 volost va 138 qishloq jamoalari hamda 1 rus poseleniyesi bo'lgan[13.65].

Namangan uyezdi boshlig'i fondida uyezd bo'yicha paxtachilikning rivojlanishi va holatiga taalluqli bo'lgan turli mazmundagi yozishmalar va boshqa hujjatlar o'rin egallagan.

Dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi Farg'ona oblast Namangan uyezdi mudirining 1901-yil 22-oktyabrda mazkur muassasaning Turkiston o'lkasi boshqarmasiga yuborgan №132 sonli ma'lumotnomasiga ko'ra, mazkur yilda mahalliy nav paxtadan 60.000 pud, amerika nav paxtadan esa 1.700.000 pud chigit olingan[14.]. Ushbu holat bu vaqtga kelib mahalliy nav paxtaga nisbatan amerika navli paxtaning ekin dalalari yildan-yilga kengayib borganligidan dalolat beradi.

Mazkur muassasaning Turkiston o'lkasi boshqarmasiga 1907 yil 11-iyunda yuborgan №54-sonli ma'lumotnomasida Farg'ona viloyatining Namangan uyezdida 1907-yilning 1-iyun kuniigacha paxtachilikning holati bayon etilib, unga ko'ra paxtani ekish aprelning boshlaridan to may oyining o'rtalariga qadar davom etib, 39.000 desyatinaga amerika navli paxta va 5000 desyatinaga mahalliy nav paxta ekilgan. 1906-yilga nisbatan 1907-yilda paxta ekini dalalari 1500 desyatinaga kengaygan. Bir pud paxta xomashyosini narxi 3 rub.50 kop. - 3 rub.60 kop.ni tashkil etgan[15.58].

Aynan mana shu mazmundagi 1908-yil 10-iyundagi №76 sonli ma'lumotnomaga ko'ra, mazkur yilda paxtani ekish asosan 20 aprelga qadar yakunlanib, 32965 desyatinaga amerika navli paxta, 972 desyatinaga esa mahalliy paxta ekilgan. 1907-yildagiga nisbatan 1908-yilda paxta ekin dalalari yana 16% ga ko'paydi[16.68].

XULOSA

Aytib o'tish lozimki, dastavval amerika paxta navlari tajriba stansiyalarida iqlimlashtirilib, so'ngra sinovdan o'tgan chigitlar dehqonlarga ulashilgan. Ayrim plantatsiyalarning tashabbusi bilan yangi agrotexnika usullari tatbiq etilganligi ma'lum. Bu borada Namangandagi "Paxtaliko'l" urug'chilik plantatsiyasining faoliyatini ham ko'rsatish mumkin. Bu yerda King, Allen, ko'k chigit, yangi Kolumbiya, va boshqa paxta navlaridan yaxshi hosil va chigit olingan[17.82-83].

Namangan uyezdi boshlig'ining 1911-yil 24-may kuni Namangan uyezdi davlat mulklari mudiriga yuborgan №755 sonli ma'lumotnomaga asosan, uyezdga 16-mart kunidan 1-mayga kadar 44.500 desyatina yerga paxtani ekish yakunlanib, paxta dalalarini hajmi o'tgan yilga nisbatan 4065 desyatinaga ko'paydi[18.19].

Shuningdek, fond materiallarida Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati tomonidan 1911-yil 25-30-sentyabr kunlari Toshkent shahrida tashkil etiladigan qishloq xo'jaligi vakillarining umumo'lka II syezdining Nizomi ham mavjud bo'lib, syezdda paxtachilik masalalarini muhokama etilishi ham nrazarda tutilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Namangan uyezdi boshlig'i boshqarmasi fondida saqlanayotgan hujjatlarning manbashunoslik nuqtayi nazardan tahlili kelgusida podsho mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasida, jumladan, Farg'ona viloyatida paxtachilikning rivojlanishi jarayoni tarixini o'rganishda muhim manba xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2016.
2. Алимов И. А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. - Андижон, 2005.
3. Хошимов С., Расулов Б., Хакимов А. Манбашунослик. - Тошкент, 2014.
4. Бобокулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент, "Сано-стандарт", 2011.
5. Шепелев Л. Е. Работа исследователя с архивными документами. – Москва: "Наука", 1966.
6. Горфейн Г. М., Шепелев Л. Е. Архивоведение. Учебное пособие. ЛГУ, 1971.

7. Путеводитель. Центральный государственный исторический архив Уз ССР (Центральный государственный архив Республики Узбекистан). Составители: Агафонова З.И., Халфин Н.А. – Ташкент, 1948.
8. O'zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro'uxat, 7-yig'majild.
9. Насриддинов Қ. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихи (XIX аср иккинчи - XX аср биринчи ярми). Тошкент: "Янги аср авлоди", 2009.
10. Насриддинов Қ. Мустамлака даврида Фарғона водийси ирригациясининг ҳолати // Ўзбекистон тарихи. 2000 - №3.
11. O'zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro'uxat, 13-yig'majild.
12. Қосимов Ў. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. - Тошкент: "Фан", 1988.
13. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар (XIX аср охири – XX аср бошлари) // Илмий оммабоп нашр. - Фарғона: "Навруз", 2013.
14. O'zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro'uxat, 46-yig'majild.
15. O'zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro'uxat, 46-yig'majild.
16. O'zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro'uxat, 46-yig'majild.
17. Зиёев Х. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми - XX аср бошлари). - Т.: Шарқ, 2006.
18. O'zbekiston Milliy arxivi, fond I-329, 1-ro'uxat, 87-yig'majild.